SHIFOKOR SO`ZI

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI NASHRI

GAZETA 1938 YILDAN “MEDITSINA FANI UCHUN” NOMI BILAN CHIQA BOSHLAGAN

Hazrat Alisher NAVOIY – So‘z mulkining sultoni



Hazrat Alisher Navoiy buyuk shoir, davlat arbobi va mutafakkir bo‘lib, o‘z asarlari bilan o‘zbek tilining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Uning ijodi milliy adabiyotimizning poydevori va yosh avlodga ilhom manbai hisoblanadi.

Har yili 9-fevral – Hazrat Alisher Navoiy tavallud topgan kun yurtimiz bo‘ylab keng nishonlanadi. Jumladan, ulug‘ mutafakkir shoir tavalludining 585 yilligi tantanalari Samarqandda ham o‘tkazildi. Samarqand shahridagi “Alisher Navoiy nomidagi istirohat bog‘ida tilimiz taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan shoir, davlat va jamoat arbobi, so‘z mulkining sultoni, Hazrat Navoiy haykali poyiga gul qo‘yish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda Samarqand shahrining bir qator mas’ul shaxslari, soha vakillari hamda oliy ta’lim muassasalari vakillari va talabalar ishtirok etdi. Shuningdek, Samarqand davlat tibbiyot universiteti jamoasi ham bayram tadbirida ishtirok etdi.

Tadbirda Navoiy dahosi e’tirof etilib, u qoldirgan boy adabiy va ilmiy meros haqida so‘z yuritildi. Shoirning umumbashariy g‘oyalar aks etgan ijodini o‘rganish va keng tatbiq qilish muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlandi.

Shuningdek, bobomiz g‘azallaridan namunalar tinglandi. Viloyat musiqali drama teatri aktyorlari tomonidan Alisher Navoiy hayoti va ijodi aks etgan sahna ko‘rinishi namoyish etildi. Shoir ijodi ulug‘lanib haykali poyiga gulchambarlar qo‘yildi. Tadbir ishtirokchilari shoir ijodidan ilhom olib, uni yosh avlodga yetkazish muhimligi ta’kidlandi.

Mazkur bayram tadbiri nafaqat tarixiy xotirani yodga solish, balki milliy til va madaniyatimizni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Alisher Navoiy hikmatlari

Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim, orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim.

— Bilimni izlash va so‘rash — insonning eng yaxshi odatidir.

Kam gapirmoq — hikmat, ko‘p gapirmoq — nadomat.

— So‘zni ehtiyotkorlik bilan ishlatish muhim ekanini bildiradi.

Befoyda so‘zni ko‘p aytma, foydali so‘zni eshitishdan qaytma.

— So‘z va tinglash madaniyati haqida hikmat.

Bu dunyoda abadiy qolmoq mumkin emas, biroq yaxshi nom qoldirmoq katta saodatdir.

— Yaxshi ish va omadli nom haqida falsafiy ta’rif.

Naf‘ing agar xalqqa foyda bo‘lsa, bilki bu naf‘ o‘zungga ko‘proqdir.

— Boshqalarga foydali bo‘lgan ish aslida o‘zingizga ham foyda keltiradi.

Ilmni kim vositasi bilan johlarga yetkazsa, o‘zini va xalqni gumroh etar.

— Bilimsizlikni tarqatish va yolg‘on bilim haqida ogohlantiradi.

O‘z vujudingga tafakkur aylagil, har ne istarsen, o‘zungdin istagil.

— O‘z ustida fikr yuritish, ichki ongni o‘stirish haqida.

Xaloyiqqa ko‘rma qilib benavo, o‘zingga ravo ko‘rmaganni ravo.

— Boshqalarni e’zozlashdan avval o‘zingizga hurmat qiling.

Kimki jahon ahlida inson erur, bilki, nishona anga iymon erur.

— Haqiqiy insoniylik — iymon bilan bog‘liq ekanini bildiradi.

Ko‘p demak birla bo‘lmag‘il nodon, ko‘p yemak birla bo‘lmag‘il hayvon.

— So‘z va ovqatni ortiqcha ishlatishdan tiyilish haqida.

Odami ersang demagil odami, onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

— Haqiqiy inson boshqalarning qayg‘usini ham his qiladimi-yo‘qmi shuni biladi.

Bordur inson zotida oncha sharaf — kim yomon axloqni etsa bartaraf.

— Axloqning inson sharafidagi o‘rni haqida hikmat.

“BOBUR TAVALLUDI – YOSH AVLOD UCHUN ILM VA IJOD ILHOMI”

Zahiriddin Muhammad Bobur o‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she’riyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan adib, shoir, olim bo‘lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo‘lsa, serjilo o‘zbek tilida yozilgan “Boburnoma” asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy oldi.

14-fevral kuni yurtimizda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 543 yilligi keng nishonlandi. Bu munosabat bilan Samarqand davlat tibbiyot universitetida ham bir qator ma’rifiy tadbir va kechalar tashkil etildi. Jumladan14-fevral kuni SamDTU Tibbiy kimyo kafedrasi tashabbusi bilan buyuk shoir va davlat arbobi, Boburiylar sulolasi asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 543 yilligiga bag‘ishlangan ma’rifiy tadbir tashkil etildi. Tadbirda kafedra mudiri, professor Dilafruz Xolmurodova tomonidan ulug‘ bobokalonimizning hayoti hamda u qoldirgan boy ilmiy va adabiy maros haqida so‘z yuritildi. Tadbir davomida talabalar tomonidan Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi aks etgan sahna ko‘rinishlari, adib ijodidan namunalar taqdim etildi. Shuningdek, universitetning hindistonlik talabalari tomonidan ham Boburiylar sulolasi asoschisi haqida iliq fikrlar bildirildi.

Universitetning davolash ishi fakulteti tyutori va talabalari bilan Samarqand shahar Markaziy harbiy okrugiga qarashli harbiy qismga tashrif buyrildi. Tashrif davomida harbiy qism faoliyati bilan tanishilib, Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 543-yiligi munosabati o‘tkazilgan tadbirda ishtirok etdilar.

O‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she’riyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan adib, shoir, olim tavalludi munosabati bilan 2 va 3-son talabalar turar joyida ham Xalqaro ta’lim fakulteti talabalari bilan birgalikda ma’naviy-ma’rifiy tadbir o’tkazildi.

Tadbir davomida talabalar tomonidan Boburning hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ruboiylar hamda sahna ko‘rinishlari ijro etildi. Biologik kimyo kafedrasi tashabbusi bilan talabalar turar joyida shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning tavalludiga bag‘ishlangan badiiy kecha o’tkazildi. Unda Boburning hayoti va ijodidan so‘z yuritilib, uning boy ilmiy va adabiy merosi xususida fikr almashildi.

SamDTU 1-son TTJda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludi munosabati bilan kitobxonlik hamda rassomchilik tadbiri bo‘lib o‘tdi. Tadbir davomida talabalar faol qatnashib, ijodiy rasmlari va kitobxonlik madaniyati bilan barchaga ko‘tarinki kayfiyat ulashdi. Tadbir so’ngida faol ishtirok etgan talabalar badiiy kitoblar va diplomlar bilan taqdirlanishdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur ijodidan



Ilm nuridin yorug‘ bo‘lur ko‘ngul makon,
Jaholat zulmati ketar bo‘lsa shu ziyon.

Ilm istagan topgay jahon ichra sharaf,
Ilmsiz kishi topmas bu olamda nishon.

Har kimki o‘qib izlar haqiqat sirrini,
Ochilur ko‘ziga ko‘p yashirin osmon.

Ilm bir xazina, tuganmas gavhardur,
Uni topgan el bo‘lgay aziz-u arjumon.

Mehnat ila hosil bo‘lur ma’rifat bog‘i,
Sabrsiz kishiga bermas u hech imon.

Bobur der: ilm yo‘lida sobit qadam bo‘l,
Ilm birla yuksalur inson hamon-hamon.

Uchrashuv

Tibbiyot tizimida yangi davr: islohotlar mazmun-mohiyati keng jamoatchilikka yetkazilmoqda

Universitetda sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish maqsadida yig‘ilish tashkil etildi.



Mazkur yig‘ilish universitet rektori Jasur Rizayev boshchiligida o‘tkazilib, unda universitet rahbariyati, klinik kafedra mudirlari hamda professor-o‘qituvchilar ishtirok etdi.

Tadbir davomida Prezidentimizning sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirishga qaratilgan farmonlari ijrosi, birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini yangi model asosida tashkil etish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish va raqamlashtirish jarayonlari haqida batafsil ma’lumot berildi.

Yig‘ilishda, shuningdek, Pediatriya fakulteti Ichki kasalliklar kafedrasi mudiri Babamuradova Zarrina Baxtiyorovna tomonidan sohada amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar, klinik ta’lim sifatini oshirish hamda zamonaviy diagnostika va davolash standartlarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish masalalari yuzasidan ma’ruza qilindi.

Ta’kidlanganidek, sog‘liqni saqlash tizimidagi yangilanishlar bevosita tibbiy ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois universitet professor-o‘qituvchilari va klinik kafedralar zimmasiga mas’uliyatli vazifalar yuklatildi.

Yig‘ilish yakunida islohotlar mazmun-mohiyatini professor-o‘qituvchilar, shifokorlar va talabalar o‘rtasida keng targ‘ib etish, klinik bazalarda zamonaviy yondashuvlarni joriy qilish hamda ilmiy-amaliy faoliyatni yanada faollashtirish bo‘yicha aniq topshiriqlar berildi.



Samarqand davlat tibbiyot universitetining nomdor davlat stipendiyalarini qo‘lga kiritgan talabalari

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi

1. Mo‘minbayev Diyorbek Jasurbek o‘g‘li - Biotexnologiya, injinering va farmatsiya fakulteti 5-bosqich talabasi.

Islom Karimov davlat stipendiyasi

1. To‘raqulov Elbek Murodullayevich – Davolash fakulteti 5-bosqich talabasi.

Ibn Sino davlat stipendiyasi

1. Tursunova Dilnura Akram qizi – Davolash fakulteti 6-bosqich talabasi.
2. Raxmatova Fotima Ulug‘bekovna – Davolash fakulteti 6-bosqich talabasi.
3. Rustamov Azizbek Almosovich – Davolash fakulteti 6-bosqich talabasi.

Rektor va iqtidorli talabalar uchrashuvi o‘tkazildi

Universitetda tahsil olayotgan iqtidorli talabalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularga keng imkoniyatlar va qulayliklar yaratish, universitetda ta’lim sifati va sharoitini yanada takomillashtirish hamda talabalar bilan bevosita muloqot qilish maqsadida universitet rektori bilan doimiy ravishda uchrashuvlar tashkil etib kelinadi.



Jumladan, 5-fevral kuni universitet rektori, professor Jasur Rizayev tomonidan iqtidorli, bilimga chanqoq va tengdoshlariga o‘rnak bo‘lib kelayotgan talaba-yoshlar bilan ochiq muloqot va ularni taqdirlash marosimi o‘tkazildi.

Tadbir davomida ochiq muloqot tashkil etilib, talabalarning fikr va mulohazalari, muammo va takliflari tinglandi. Universitetda o‘qishi davomida tengdoshlari orasida iqtidori, faolligi va izlanuvchanligi bilan ajralib turadigan hamda fanlarni a’lo baholarga o‘zlashtirgan talabalar “Rektor Stipendiyasi” bilan taqdirlandi. Shuningdek, bir qator Respublika va xalqaro miqyosdagi tanlovlar, fan olimpiadalarida sovrinli o‘rinlarni egallagan va nomdor davlat stipendiyalari sohiblari bo‘lgan talabalarga diplom va sertifikatlar topshirildi.

Uchrashuv davomida universitet rektori Jasur Rizayev talabalar bilan samimiy suhbatlashib, ularning ilmiy va kelgusidagi kasbiy faoliyatlariga omad tiladi.

Prorektor va yosh ixtirochi, innovator talabalar uchrashuvi o‘tkazildi

17- fevral kuni universitetning Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori t.f.d., professor A.Kubayev hamda universitetda tahsil olayotgan Startap loyihalarga va innovatsion g‘oyalarga ega yoshlar bilan uchrashuv o‘tkazildi.

Uchrashuv davomida talabalar o‘z g‘oyalari va tibbiyotda qo‘llashga doir innovatsion ixtirolarini namoyish qilib, o‘zaro fikr almashdilar. Shu bilan birga, ular o‘z tajribalarini oshirish va ilmiy ishlarni rivojlantirish bo‘yicha muhim maslahatlar oldilar.

Yakunda amaliyotga joriy etish mumkin bo‘lgan ixtirolar tanlab olinib, ularni yanada takomillashtirish borasida tavsiyalar berildi. Prorektor yosh ixtirochilarning tashabbuskorligi va ijodiy yondashuvini alohida ta’kidladi. Ularning innovatsion g‘oyalari universitetning ilmiy salohiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi mumkinligi qayd etildi.



Jismoniy faollik: Sog’lom bo’lishning beshta oddiy va samarali usuli

JSST tahliliga ko’ra, keyingi o’n yilda dunyo bo’yicha kattalar o’rtasida jismoniy faollik darajasi 5 foizga pasaygan. Bu tendentsiya shunday davom etsa, 2030 yilgacha kamharakatlik ko’rsatkichi 35 foizgacha oshishi prognoz qilinyapti.

Xo’sh, bu muammoning oddiy va oqilona echimi bormi?

— Ba’zilar jismoniy faollik uchun ko’p vaqt, maxsus maydon, sport kiyimlari va kuchli Iroda kerak, degan noto’g’ri tasavvurga ega, — deydi Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Qashqadaryo filiali direktori Yashin Ahmadov. — Aslida esa buning uchun istak va harakatning o’zi kifoya.

Og’ir jismoniy mashqlarga har qanday organzm ham dosh bera olmaydi. Qolaversa, qator kasalliklarda bunday zo’riqish organizm uchun zararli. Shunday ekan, muammoning oqilona echimi — kundalik tizimli harakatda.

Quyida har kunlik jismoniy faollik uchun eng oson va ommabop usullarni keltirib o’tamiz.

1-usul: 20 daqiqalik engil yuklama

Jamoat transportida manzilingizdan bir bekat oldin tushing. Avtomobil haydasangiz, mashinani ishxonangizdan uzoqroq joyga qo’ying. Shu tariqa ko’proq piyoda yurish imkoniyati tug’iladi.

Yuqori qavatlarga liftda emas, piyoda ko’tarilishga odatlaning. Ish yoki o’qishga kelishda 10 daqiqa, qaytishda 10 daqiqa yayov yurishni yo’lga qo’ysangiz, bu organizm uchun kunlik 20 daqiqa engil kardioyuklama hisoblanadi.

2-usul: 30 daqiqa qoidasi

Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti haftasiga kamida 150 daqiqadan iborat o’rtacha jismoniy faollikni tavsiya qiladi.

Bu me’yorni haftaning 5 kuniga 30 daqiqadan taqsimlash mumkin. Shunda alohida sport mashg’uloti bilan shug’ullanish shart bo’lmaydi. Tez yurish, uy mehnati, bolalar bilan o’ynash orqali ushbu yuklamani oson uddalaysiz.

3-usul: har soatda 5 daqiqa ajrating

Har soatda kamida 5 daqiqa harakat qilish tavsiya etiladi: o’rningizdan turing, biroz xona yoki yo’lak bo’ylab harakatlaning. Qomatni rostlang. 10 marta o’tirib-turish mashqini bajaring. Bu usul diqqat va ish unumdorligini oshirishga ham xizmat qiladi.

4-usul: ham muloqot, ham hordiq

Do’stu yaqinlar bilan muloqot uchun sayrni tanlang. Oilaviy dam olish uchun esa velosayohat yoki stol tennisi o’yini juda maqbul.

5-usul: texnologiyalar — dastyoringiz bo’lsin

Turli mobil ilovalarni qo’llash va harakat haqida eslatmalarni yoqish, fitnes-trekerlar orqali kunlik faollikni kuzatish sog’lik uchun foydali.

Kuniga 10 ming qadam yurish majburiy me’yor emas. Ammo bu ko’rsatkich sizni sog’lom hayot uchun yo’naltiruvchi ajoyib marra hisoblanadi. Unutmang, katta natijalar kichik qadamlardan boshlanadi.

Sog’liqni saqlash vazirligi Matbuot xizmati.



Universitet xodimlarining Yaponiyada malaka oshirishlari yuzasidan uchrashuv o‘tkazildi

16-fevral kuni universitetga Yaponiya Xalqaro Tibbiy Ta’lim Jamg‘armasi (Japan International Medical Education Foundation) direktori Sakai Akira tashrif buyurdi.

Tashrif doirasida universitet rahbariyati bilan uchrashuv tashkil etilib, o‘zaro hamkorlik masalalari muhokama qilindi. Jumladan, JIMEF tomonidan Samarqand davlat tibbiyot universiteti xodimlarini Yaponiyada 21-avgustdan 18-sentyabrga qadar davom etadigan malaka oshirish kurslarida hamda konferensiyada ishtiroklarini tashkil etish borasida muhokamalar olib borildi.

Mazkur dastur Gastrointestinal endoskopiya bo‘yicha Tsukuba universiteti klinikasida malaka oshirish imkonini beradi.

Ma’lumot uchun: JIMEF JAPAN — bu Japan International Medical Education Foundation (Yaponiya Xalqaro Tibbiy Ta’lim Jamg‘armasi) bo‘lib, xalqaro tibbiy hamkorlik va malaka oshirish dasturlarini tashkil etuvchi nodavlat tashkilot hisoblanadi. JIMEFning asosiy vazifasi — turli davlatlardan kelgan shifokorlar, rezidentlar va tibbiyot xodimlarini Yaponiyada zamonaviy tibbiyot texnologiyalari va klinik tajriba bilan tanishtirish.



Paxtachida xorijiy talabalar tibbiyot sohasida tahsil oladi

Samarqand viloyati, Paxtachi tumanidagi Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi Texnikumi va Nepal davlatidagi «Yatri Educational Consultancy» mas’uliyati cheklangan jamiyati o’rtasida qo’shma hamkorlik memorandumi imzolandi.

Memorandumni Nepal tomonidan jamiyat raisi doktor Gayatri Prasad Sharma (Ashis) va texnikum direktori E.Nurbayev imzoladi. Imzolash marosimida Paxtachi hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha o’rinbosari A.Qo‘ldoshev, Samarqand davlat tibbiyot universiteti akademik litsey va jamoat salomatligi texnikumlari bilan ishlash bo’yicha bo’lim boshlig’i B.Eshbekov hamda Navoiy davlat pedagogika universiteti Davolash fakulteti dekani B.Navruzov ishtirok etdi.

Shartnomaga ko’ra, Nepal, Pokiston, Bangladesh, Misr va Hindiston kabi davlatlardan kelgan o’quvchi yoshlarni Paxtachi Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat Salomatligi Texnikumida o’qitish bo’yicha aniq vazifalar belgilab olindi. Bu hamkorlik orqali xalqaro ta’lim almashinuvi va tibbiyot sohasidagi mutaxassislar tayyorlash jarayoni yanada rivojlantiriladi.

SamDTU neyroxirurglari Xitoyning Shinjon Tibbiyot Universitetida malaka oshirdi

Samarqand davlat tibbiyot universiteti va Xitoy Xalq Respublikasining yetakchi oliy tibbiy ta’lim va klinik markazlaridan biri – Shinjon Tibbiyot Universiteti (Xinjiang Medical University) o‘rtasida ilmiy-tadqiqot va kadrlar tayyorlash bo‘yicha hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan.

Mazkur hamkorlik doirasida 2026 yil 15–21-yanvar kunlari SamDTU Ko‘p tarmoqli klinikasi Neyroxirurgiya bo‘limi mudiri X.Rajabov Xitoy Xalq Respublikasining Urumchi shahrida joylashgan Xinjiang Medical University Hospitali Neyroxirurgiya Departamentida qisqa muddatli malaka oshirish kursida tajriba almashib qaytdi.

X.Rajabov xizmat safari davomida neyroxirurgiyaning zamonaviy va yuqori texnologik yo‘nalishlari bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar, operatsiyalar hamda klinik jarayonlar bilan yaqindan tanishildi. Jumladan, bosh miya qon tomirlari anevrizmalari operatsiyalari, akustik nevrinomalarni jarrohlik yo‘li bilan olib tashlash, epilepsiya kasalligi operatsiyalari, shuningdek uch shoxli nerv va yuz nervi neyrovaskulyar konfliktlarini zamonaviy texnologiyalar yordamida jarrohlik yo‘li bilan davolash bo‘yicha ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirdi.



Universitetning xorijlik bitiruvchilariga diplomlar tantanali ravishda topshirildi

Samarqand davlat tibbiyot universitetida bugungi kunda Respublikamiz bilan bir qatorda ko‘plab xorijiy mamlakatlar - Hindiston, Pokiston, Xitoy, Rossiya, Koreya, Turkiya, Ozarbayjon, Tunis, Filippin, Nepal, Bangladesh, Falastin, Eron, Malayziya, Afg‘oniston, Qozog‘iston, Tojikiston, Turkmaniston va Qirg‘izistondan ham talabalar ta’lim oladi.



Jumladan, universitetda hozirda 4000 ga yaqin xorijlik talabalar Xalqaro ta’lim fakultetida malakali tahsil olib kelmoqda. 10-fevral kuni Yakuniy davlat imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirgan bitiruvchi bosqich talabalariga diplomlarni tantanali ravishda topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirni universitet rektori Jasur Rizayev ochib berdi hamda bitiruvchi kurs talabalariga keyingi kasbiy faoliyatlarida omadlar tilab, o‘z yurtlarida yetuk shifokor bo‘lishlariga tilakdosh ekanligini bildirdi. Tadbirda Xalqaro ta’lim fakulteti bitiruvchilarining oila a’zolari ham ishtirok etib, SamDTU rahbariyati va ustozlarga yaratilgan shart-sharoitlar va sifatli ta’lim uchun minnatdorlik bildirdilar. Samarqand davlat tibbiyot universiteti bugungi kunda nafaqat respublikamiz, balki butunjahon sog‘liqni saqlash tizimiga malakali kadrlarni yetkazib berishda jadal ilgarilab bormoqda. Bu esa mamlakatimizda ta’lim va tibbiyotga qaratilayotgan ulkan e’tibor namunasidir!



Xitoyning yana bir nufuzli oliygohi bilan hamkorlik aloqalari o‘rnatildi

2-fevral kuni universitetga Xitoy Xalq Respublikasining nufuzli oliy ta’lim muassasalaridan biri — Shantou universiteti delegatsiyasi tashrif buyurdi.

Tashrif davomida mehmonlar SamDTUning o‘quv jarayoni, ilmiy faoliyati, klinik bazalari hamda talabalar va professor-o‘qituvchilar uchun yaratilgan zamonaviy sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar.

Shuningdek, tashrif doirasida universitetimiz rektori Jasur Rizayev bilan rasmiy uchrashuv tashkil etildi. Uchrashuvda ikki oliy ta’lim muassasasi o‘rtasida ta’lim, ilm-fan va akademik almashinuv sohalarida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalalari atroflicha muhokama qilindi. Tomonlar qo‘shma ilmiy tadqiqotlar, professor-o‘qituvchilar va talabalar almashinuvi, shuningdek, xalqaro ta’lim loyihalarini amalga oshirish istiqbollariga alohida e’tibor qaratdilar.

Uchrashuv yakunida o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash va uni amaliy bosqichga olib chiqishga qaratilgan hamkorlik memorandumi imzolandi.

Ma’lumot uchun: Shantou universiteti Xitoy Xalq Respublikasining Guangdong viloyatida joylashgan bo‘lib, mamlakatdagi nufuzli oliy ta’lim muassasalaridan biri hisoblanadi. Universitet 1981-yilda o‘z faoliyatini boshlagan bo‘lib, tibbiyot, muhandislik, tabiiy va ijtimoiy fanlar yo‘nalishlarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlaydi. Shantou universiteti xalqaro hamkorlikka katta e’tibor qaratib, dunyoning ko‘plab yetakchi universitetlari bilan qo‘shma dastur va ilmiy loyihalarni amalga oshirib kelmoqda.

URGUT JAMOAT SALOMATLIGI TEXNIKUMIGA TASHRIF

5-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi rahbarining sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish bo‘yicha o‘rinbosari Tamila Aliyeva va tizim mas’ullari Abu Ali ibn Sino nomidagi Urgut jamoat salomatligi texnikumidagi sharoitlar bilan tanishib, texnikumning moddiy texnik bazasi, o‘quvchilarning ta’lim olishi uchun yaratilgan sharoitlar, hudud ozodaligi, isitish tizimlarining barqaror ishlayotganligi, kadrlar tayyorlashda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan asosiy jihatlar yuzasidan mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo‘yicha mas’ullarga aniq topshiriqlar bergan edi.

Berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash maqsadida tezkor ishchi guruhi tuzildi va o‘rganish ishlarini olib bordi. Kasbiy ta’lim agentligi hududiy boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari G‘.Norqulov, SamDTU akademik litsey va jamoat salomatligi texnikumlari bilan ishlash bo‘yicha bo‘lim boshlig‘i B.Eshbekov va ishchi guruhi a’zolari tomonidan mavjud kamchiliklarni o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini ta’minlash yuzasidan texnikum mas’ullariga tavsiyalar berildi. SamDTU bilan hamkorlikda sog‘liqni saqlash tizimida joriy etilgan yangi DMED tizimini o‘quv dasturlariga kiritish bo‘yicha ishlar boshlab yuborildi. Berilgan topshiriqlarni belgilangan muddatlarda bajarish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab olindi.

Urgut tumanida aholi tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi

Aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish hamda chekka hududlardagi aholi qatlamini sog‘lomlashtirish maqsadida universitet ishchi guruhi tomonidan viloyatdagi uzoq bo‘lgan hududlarda aholini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish ishlari olib borilmoqda.



7-fevral kuni Urgut tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli “Yangi ariq” oilaviy shifokor punktida Samarqand davlat tibbiyot universitetining malakali tibbiy xodimlari tomonidan chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘riklar tashkil etildi. 6600 dan ortiq aholiga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallagnan OSHPda SamDTUning radiolog, oftalmolog, akusher-ginekolog, urolog, kardiolog, pediatr kabi 10 dan ortiq yo‘nalishlar bo‘yicha mutaxassislari tomonidan 200 dan ortiq aholi tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilib, kerakli tavsiya va yo‘llanmalar taqdim etildi. Shuningdek, aholi xonadonlariga ham tashrif buyurilib, bemorlar tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi va ularga kerakli tavsiyalar berildi.

Mazkur tibbiy ko‘riklardan ko‘zlangan maqsad imkoniyati cheklangan aholi qatlamiga qulay tibbiy xizmatni taqdim qilish, aholining tibbiy madaniyatini shakllantirish orqali hayot darajasini yaxshilash bo‘lib, universitet professor-o‘qituvchilari va ishchi guruhi tomonidan viloyatning chekka hududlarida amalga oshirilayotgan ushbu keng ko‘lamli va tizimli vazifalar aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va sog‘liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi.



USTOZ RUSTAMOV MARDONQUL RUSTAMOVICH 80 YOSHDA!

Rustamov Mardonqul Rustamovich 1946 -yil-da Samarqand shahrida tug‘ilgan. Uning hayoti yoshligidanoq tibbiyot va insonlarga xizmat qilish bilan chambarchas bog‘liq. Mehnat faoliyatini sanitar sifatida boshlab, keyinchalik shifokorlik kasbiga sadoqat bilan 62 yillik samarali mehnat yo‘lini bosib o‘tdi.

1963-yilda Samarqand davlat tibbiyot institutining pediatriya fakultetiga o‘qishga kirib, 1969-yilda imtiyozli diplom bilan tamomladi va ilmiy faoliyatini boshladi. 1974-yilda professor B.X. Qoraxo‘jayev rahbarligida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. 1989-yilda Moskvada doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, bolalar gastroenterologiyasi va iqlim omillarining bolalar salomatligiga ta’siri bo‘yicha muhim ilmiy xulosalarni ilgari surdi. Uning ilmiy izlanishlari amaliy pediatriya rivojiga sezilarli hissa qo‘shdi va ko‘plab shifokorlar uchun muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qilmoqda.

Professor M.R. Rustamov bolalar gastroenterologiyasi va nutritsiologiyasi sohasida yirik olim, Samarqand viloyati bolalar gastroenterologiya maktabi asoschisi hisoblanadi. U viloyatda ixtisoslashtirilgan gastroenterologiya xizmatini yo‘lga qo‘yishga katta hissa qo‘shgan hamda zamonaviy diagnostika va davolash usullarini amaliyotga joriy etgan. Uning tashabbusi bilan ko‘plab yosh mutaxassislar ilmiy va klinik faoliyatga jalb etildi.

Uning rahbarligida 16 ta nomzodlik va 5 ta doktorlik dissertatsiyalari himoya qilingan. Professor 500 dan ortiq ilmiy ishlar, 5 ta darslik va 12 ta o‘quv qo‘llanma muallifi. U ko‘p yillar davomida oliy tibbiy ta’lim tizimida o‘quv-uslubiy va ilmiy faoliyatni rivojlantirishga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Uning shogirdlari bugungi kunda respublikaning turli hududlarida samarali faoliyat yuritib, ustoz an’analarini davom ettirmoqdalar.

Professor Rustamov davlat attestatsiya komissiyalari raisi va a’zosi sifatida, shuningdek, respublika va xalqaro ilmiy jurnallar tahrir hay’atlarida faoliyat yuritib kelmoqda. U ko‘p yillik samarali mehnati uchun “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash a’lochisi” ko‘krak nishoni hamda qator faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan. Fidokorona mehnati, kamtarligi va yuksak insoniy fazilatlari bilan u hamkasblari va shogirdlari orasida alohida hurmat-e’tiborga sazovor.

Qadrli Mardonqul Rustamovich! 80 yillik muborak yubileyingiz bilan samimiy tabriklaymiz! Sizga mustahkam sog‘lik, uzoq umr, oilaviy farovonlik va yangi ilmiy-ijodiy yutuqlar tilaymiz.

SAMARQAND ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI JAMOAT SALOMATLIGI TEXNIKUMI – 100 YILDAN OSHGAN AN‘ANALAR VA ZAMONAVIY IMKONIYATLAR MARKAZI

1920 yil Samarqand shahrida “Akusherlar maktabi” nomi bilan tashkil etilgan bilim yurti 1998-yil 29-iyuldagi O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 372-sonli buyrug‘iga asosan Samarqand tayanch tibbiyot kollejiga aylantirilgan. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2005-yil 12-iyuldagi 331-sonli buyrug‘i bilan tayanch tibbiyot kolleji maqomi berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4666-sonli qaroriga asosan Samarqand Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumiga aylantirilgan.



Texnikumning quvvati 1200 o‘rinli bo‘lib, hozirda amaldagi quvvati 3000 o‘rinni tashkil etadi. 130 ta o‘quv xonalari, 8 ta simulyatsion xonalar, 84 o‘rinli ARM, sport zali, 150 o‘rinli yotoqxona, 250 o‘rinli oshxona va 250 o‘rinli faollar zali, davolash profilaktika muassasalarda 16 ta, Oilaviy poliklinikalarda 4 ta o‘quv-amaliyot xonalari majud.

Bugungi kunda texnikumda Hamshiralik ishi, Davolash ishi, Stomatologiya ishi, Farmatsiya, Feldsherlik ishi, Tibbiy profilaktika ishi, Funksional diagnostika ishi va tibbiy radiologiya yo‘nalishlari bo‘yicha 1479 nafar o‘quvchilar tahsil olmoqda. Ularga 2 nafar fan doktori, 2 nafar fan nomzodi, 22 nafar bosh o‘qituvchi, 22 nafar yetakchi o‘qituvchi, 37 nafar katta o‘qituvchi va 38 nafar oliy malumotli o‘qituvchilar dars berib kelmoqda.

Texnikum axborot resurs markazida 10914 dona umumta’lim fanlar darsliklari, 25783 dona umumkasbiy va kasbiy fanlar darsliklari, 2045 dona ijtimoiy va siyosiy fanlardan darsliklar, 131 dona o‘qitish materiallar to‘plami, 7575 dona badiiy adabiyotlar, 6517 dona elektron darsliklar mavjud.

Talim sifatiga halqaro tajribalarni qo‘llash va xalqaro hamkorlik aloqalarini o‘rnatish maqsadida 15 ta xorijiy davlatlar bilan Memorandumlar imzolangan. Texnikum o‘qituvchi va o‘quvchilariga ilmiy-uslubiy yordam ko‘rsatish maqsadida Samarqand davlat tibbiyot universitetining kafedralari bilan hamkorlik ishlari yo‘lga qo‘yilgan.



Samarqad davlat tibbiyot universiteti professor-o‘qituvchilari hamda texnikum o‘qituvchilari hamkorligida 20 dan ziyod darslik va o‘quv qo‘llanmalari yaratilgan.

Samarqand davlat tibbiyot universitetida tashkil etilib kelinayotgan “Fundamental, amaliy tibbiyot va farmakologiya yutuqlari” Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda texnikum o‘quvchilari faxrli o‘rinlarni egallab kelishmoqda.

Texnikum tashkil etilganidan buyon 80 mingdan ziyod mutaxassislar bitirishgan.



“RAQAMLI STOMATOLOGIYANI TALQIN QILISH” MAVZUSIDA ILMIY-AMALIY SEMINAR

SamDTU Stomatologiya fakulteti talabalari uchun “Raqamli stomatologiyani talqin qilish” mavzusidagi ilmiy-amaliy seminar o‘tkazildi.

Seminarda zamonaviy stomatologiyada raqamli texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati borasida fikr almashildi. Seminar davomida talabalarga real klinik holatlar misolida raqamli stomatologiya imkoniyatlari, tashxis va davolash jarayonlarida zamonaviy yondashuvlar, shuningdek, amaliyotda keng qo‘llanilayotgan intraoral skanerlar bilan ishlash prinsiplari tushuntirildi.

Mazkur seminar talabalarga nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan mustahkamlash, raqamli stomatologiya bo‘yicha zamonaviy bilimlarga ega bo‘lish, kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun muhim tajriba orttirish imkonini berdi.



“TIBBIYOT VA FARMATSIYADA YANGI INNOVATSION G‘OYALAR, MUAMMO VA YECHIMLAR”

SamDTUda 11-fevral – Ilm-fan sohasidagi xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan “Ilm va ayol: Barqaror jamiyat sari” shiori ostida “Tibbiyot va farmatsiyada yangi innovatsion g‘oyalar, muammo va yechimlar” mavzusida ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi.

Anjumanda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shib kelayotgan olimalar, ilm-fan yo‘lida izlanishlar olib borayotgan xotin-qizlar tibbiyot va farmatsiya sohasidagi innovatsion g‘oyalarga bag‘ishlangan taqdimotlari bilan ishtirok etishdi.

Ko‘tarinki ruhda, qiziqarli savol-javoblar, fikr-mulohazalar bilan o‘tgan tadbir so‘ngida bir qator olimalar viloyat hokimligi Oila va xotin-qizlar boshqarmasi hamda universitet rektorining tashakkurnomalari bilan taqdirlandilar.



“MEROS PHARM” KORXONASIGA TASHRIF

“Meros Pharm” stipendiyasi sohiblari bo‘lgan talabalar “Meros Pharm” korxonasiga tashrif buyurdilar.

Tashrif davomida talabalar “Meros Pharm” klinikasi hamda dori vositalari saqlanadigan omborxonasi faoliyati bilan yaqindan tanishdilar. Omborxonada dori vositalarini saqlash sharoitlari, ularning hisobini yuritish, qabul qilish va tarqatish jarayonlari bo‘yicha batafsil ma’lumotlar olindi.

Shuningdek, “Meros Pharm” klinikasida bemorlar uchun yaratilgan sharoitlar, bo‘limlar faoliyati bilan tanishildi. Tibbiy xizmat ko‘rsatish jarayonlari o‘rganildi. Uchrashuv davomida talabalar amaliy tajriba orttirib, kelajakdagi professional faoliyatlari uchun muhim ko‘nikmalar oldilar. Shu bilan birga, ular korxona faoliyatini yaxshiroq tushunib, o‘z g‘oyalari va innovatsion takliflarini tatbiq etish imkoniyatlarini ko‘rdilar.



SUN’IY VA EMOTSIONAL INTELLEKT ASOSIDA INGLIZ TILIDA ERKIN GAPIRISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN WORKSHOP O’TKAZILDI

Universitetda sun’iy va emotsional intellekt asosida ingliz tilida erkin va ishonch bilan gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo’yicha o’qituvchilar hamda talabalar ishtirokida workshop o’tkazildi.

Bo‘lib o‘tgan innovatsion workshop malakali mutaxassis Feruz Akbarov tomonidan olib borildi va unda ma’ruzachining AQSHda chop etilgan “The Art of Teaching: Let Your Teaching Voice Be Heard” nomli kitobi asosida sun’iy intellektga oid eng so‘nggi va qimmatli insaytlar haqida ma’lumotlar berildi.

Shuningdek, generativ sun’iy intellekt orqali ingliz tilida gapirish ko’nikmalarini shakllantirish, undan faol foydalangan holda turli xil innovatsion loyihalar yaratish amaliy misollar bilan ishtirokchilarga namoyish etildi.

SamDTUda Kattaqo‘rg‘onlik bitiruvchilarining bandligini ta’minlashga qaratilgan yig‘ilish o‘tkazildi

Universitetda 13-fevral kuni Kattaqo‘rg‘on tumani tibbiyot birlashmasi boshlig‘i V.Xudoyqulov hamda oliy ta’lim muassasining Kattaqo‘rg‘onlik bitiruvchi yoshlari o‘rtasida bitiruvchilarning bandligini ta’minlash, ularning ish o‘rinlarini oldindan band qilib qo‘yishga qaratilgan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilish tashkil etishda asosan bitiruvchilar ish o‘rnini oldindan band qilib qo‘yishi, OTM ish beruvchi tashkilot va bitiruvchi yoshlar bilan uch hamda to‘rt tomonlama shartnomalar tuzildi. Yig‘ilish davomida universitetimizning faol yoshlari o‘zlarining turli takliflari bilan faol ishtirok etishdi. Tadbir ishtirokchilari va bitiruvchi yoshlar o‘rtasida suhbat va savol-javoblar bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda Kattaqo‘rg‘on tumani tibbiyot birlashmasi boshlig‘i Vohid Xudoyqulov so‘zga chiqib tumandagi tibbiy kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni aytib o‘tib, ishlashga xohishi bor talabalar bilan uchrashuv so‘ngida shartnomalar tuzildi.

Tadbirda bakalvriatning turli yo‘nalishlari bo‘yicha ta’limni tamomlayotgan jami 10 nafar bitiruvchilar o‘zlarining ish o‘rinlarini band qiluvchi shartnomalar tuzishdi.



UNIVERSITET KLINIKASIDA ZAMONAVIY ENDO-UROLOGIK AMALIYOTLAR MUVAFFAQIYATLI O‘TKAZILMOQDA

Universitet rektori tashabbusi bilan tashkil etilgan Urologiya kafedrasi hamda universitet ko‘p tarmoqli klinikasining endo-urologiya bo‘limida siydik-tosh kasalliklarini davolash bo‘yicha zamonaviy, kam invaziv jarrohlik amaliyotlari izchil amalga oshirilmoqda.

Jumladan, endoskopik va lazer texnologiyalar yordamida bemorlar uchun kam jarohatli, yuqori samarali va xavfsiz jarrohlik yordami ko‘rsatilmoqda.

Qayd etish joizki, laparoskopik va lazerli endo-urologik amaliyotlar bemorlarda erta tiklanish imkonini yaratib, operatsiyadan keyingi asoratlar rivojlanishi xavfini minimal darajaga tushiradi.

11-FEVRAL – “ILM-FAN SOHASIDAGI AYOLLAR VA QIZLAR XALQARO KUNI”!

2015-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan ta’sis etilgan ushbu sana ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) yo‘nalishlarida ayollar va qizlarning ishtirokini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan muhim kun hisoblanadi.



- Hozirda ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida umumiy qiymati 1 405,6 mlrd. so‘m bo‘lgan 763 ta loyiha bajarilmoqda, shundan, umumiy qiymati 285,1 mlrd. so‘m bo‘lgan 214 ta (28 foiz) loyihaga olima ayollar rahbarlik qilmoqda.

- 2025-yil davomida oliy ta’limdan keyingi ta’limga jami 17 375 nafar izlanuvchi va stajyor-tadqiqotchilar qabul qilingan bo‘lib, shundan 8 272 nafarini (47,6 foiz) xotin-qizlar tashkil qiladi.

- 2025-yilda “Akademik harakatchanlik” dasturi doirasida o‘tkazilgan tanlovlarda ja’mi 93 nafar ishtirokchi g‘olib bo‘lgan va ulardan 38 nafari (40 foiz) xotin-qizlardir.

- 2025-yilda tanlovlar orqali 35 nafar xotin-qizlar xorijga ilmiy stajirovkaga yuborildi.



SHAXMAT-SHASHKA BO‘YICHA “REKTOR KUBOGI” BELLASHUVLARI O‘TKAZILDI

Talaba-yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, ularni sportga qiziqtirish hamda ularning iqtidor va salohiyatini munosib taqdirlash maqsadida doimiy ravishda sport musobaqalari va bellashuvlar tashkil etib kelinadi.

Jumladan, 12-13-fevral kunlari universitet talaba yoshlari o‘rtasida “Talaba-ertangi strategik lider” shiori ostida sport klubi tashabbusi bilan sportning shaxmat va shashka turlari bo‘yicha “Rektor kubogi” musobaqalari tashkil etildi.

Qizg‘in tarzda o‘tgan musobaqa davomida talabalar o‘z strategik fikrlash va tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini namoyish etdilar. Shuningdek, bu bellashuvlar ularni jamoaviy ruhda ishlashga, musobaqa orqali o‘z iqtidorini rivojlantirishga va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga rag‘batlantirdi.

Musobaqa yakunida g‘olib va sovrindorlar aniqlanib, diplom hamda esdalik sovg‘alari topshirildi. Tashkilotchilar, shuningdek, barcha ishtirokchilarning faol qatnashuvini alohida ta’kidlashdi va ularga kelajakdagi sport musobaqalarida ham muvaffaqiyat tilashdi.

“PASTEUR FRONTIERS” TALABALAR ILMIY KONFERENSIYASI

Universitetda Everest Community va Mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasi hamkorligida “Pasteur Frontiers” talabalar ilmiy konferensiyasi o‘tkazildi.

Konferensiya doirasida talabalar mikroblar, viruslar va immunitet tizimi bilan bog‘liq qiziqarli mavzularni taqdim etdilar, tibbiyot olamining tarixiy burilish nuqtalari va muhim ilmiy kashfiyotlar yoritildi, shuningdek, laboratoriya amaliyotlari va yangi tadqiqot metodlari haqida ham fikr almashildi. Uchrashuv davomida talabalar o‘z ilmiy ko‘nikmalarini mustahkamlab, tadqiqot ishlariga yondashuvlarini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Shu bilan birga, ular kelajakda ilmiy faoliyatda muvaffaqiyat qozonish uchun motivatsiya oldilar.

Yakunda eng faol ishtirokchilar maxsus diplom va sertifikatlar bilan taqdirlandi.

“ENG FAOL KITOBXON” TANLOVI O‘TKAZILDI

Mamlakatimizda aholi va yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Kitob mutolaasi insonni hayotda o‘z o‘rnini topishida, dunyoqarashini kengayishida, intellektual salohiyatini rivojlanishida, ma’naviy yuksalishida, turli yot g‘oyalardan asrashda beqiyos ahamiyatga ega.

Universitetda faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar o‘rtasida Xodimlar kasaba uyshmasi va xotin-qizlar kengashi tomonidan “Eng Faol Kitobxon” tanlovi o‘tkazildi.

Ko‘tarinki ruhda, shaffof va qiziqarli tarzda o‘tgan tanlovda hay’at a’zolari tomonidan g‘oliblar aniqlanib, diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar. Shuningdek, tanlov ishtirokchilarga o‘z bilimlarini mustahkamlash va kitobga bo‘lgan qiziqishini oshirish imkonini berdi. Ushbu tadbir xotin-qizlar orasida madaniy va intellektual faollikni rag‘batlantirishga xizmat qildi.

“Karyera kuni” hamda “Kelajakka qadam” dasturi doirasida seminar-trening o’tkazildi

SamDTU bitiruvchilari uchun “Karyera kuni” hamda “Kelajakka qadam” dasturi doirasida seminar-trening tashkil etildi.

Tadbir bitiruvchilarni mehnat bozoriga yo‘naltirish, ularning bandligini ta’minlash va ish beruvchilar bilan bevosita muloqotni yo‘lga qo‘yishga qaratildi.

Seminarda Urgut tuman tibbiyot bo‘limi hamda O‘zmilliybank AJ vakillari tomonidan bo‘sh ish o‘rinlari, ishga joylashish tartiblari, ta’lim kreditlari va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash dasturlari haqida amaliy ma’lumotlar berildi.

Mazkur seminar bitiruvchilarning mehnat bozoriga muvaffaqiyatli kirib borishida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirda jami 250 nafardan ortiq bitiruvchilar qatnashib, o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

“BIZ YOSHLAR GIYOHVANDLIK VA JINOYATCHILIKKA QARSHIMIZ” MAVZUSIDA PROFILAKTIK TADBIR O‘TKAZILDI

Universitetda Samarqand viloyati giyohvandlik va psixotrop moddalarga qarshi kurashish bosh boshqarmasi bilan hamkorlikda “Biz yoshlar giyohvandlik va jinoyatchilikka qarshimiz” mavzusida profilaktik tadbir o‘tkazildi.

Tadbirda bosh boshqarma o‘rinbosari, podpolkovnik O‘.Gulyamov, universitet profilaktika inspektori hamda mas’ullar tomonidan talabalarga mavzu yuzasidan kerakli tushuntirishlar berildi. Jumladan, jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlarini sodir etishdan saqlanish, bunday holatlarga befarq bo‘lmaslik borasida fikr almashildi. Shuningdek, tadbirda talabalar sog‘lom va mas’uliyatli hayot tarzini shakllantirishning muhim jihatlari bilan tanishtirildilar. Ushbu uchrashuv yoshlarni huquqiy bilim va madaniyatni oshirishga hamda salbiy odatlardan uzoqlashishga rag‘batlantirdi.



Qalblar poklanadigan,

Ramazon oyi inson hayotida alohida o‘rin tutadigan, ma’naviy poklanish va ruhiy yuksalish davridir. Bu muborak oy nafaqat ro‘za tutish bilan, balki qalbni tozalash, niyatni soflash va hayotga yangicha nazar bilan qarash imkoniyati bilan ham ahamiyatlidir. Ramazon insonni sabr-toqatga, matonatga va iroda mustahkamligiga o‘rgatadi. Kun davomida yeb-ichishdan tiyilish orqali odam nafsini jilovlashni, o‘z xohish-istaklarini nazorat qilishni o‘rganadi. Bu esa uning xarakterini toblaydi, hayot sinovlariga chidamli qiladi.

Ramazon oyining eng ulug‘ fazilatlaridan biri — u ma’naviy tarbiya maktabidir. Bu oyda qilingan har bir yaxshi amal, aytilgan har bir shirin so‘z, qilingan har bir xayriya inson qalbida ezgulik urug‘ini ekadi. Ayniqsa, muhtoj va kam ta’minlangan insonlarga yordam berish, sadaqa va ehson qilish kabi amallar jamiyatda mehr-oqibat muhitini kuchaytiradi. Ochlikni his qilgan inson boshqalarning holatini chuqurroq anglaydi, shukr qilishni o‘rganadi. Ne’mat qadrini bilish,

IBN SINO – ILM VA MATONAT NAMUNASI

#Ibrat_maktabi



Qadim Buxoro zaminida tug‘ilgan Ibn Sino yoshligidan ilmga beqiyos muhabbat qo‘ygan edi. U oddiy bolalar kabi o‘yin-kulgiga berilib ketmas, bo‘sh vaqtini kitob mutolaasiga sarflardi. Otasi uning qiziqishini ko‘rib, uyiga turli ustozlarni taklif qildi. Zehni o‘tkir, xotirasi mustahkam bo‘lgan Ibn Sino qisqa vaqt ichida mantiq, falsafa, matematika va tabobat ilmlarini chuqur o‘zlashtirdi.

Yoshligidayoq u shunday darajaga yetdiki, atrofdagi ulamolar u bilan bahslashishdan hayiqadigan bo‘ldi. Ammo Ibn Sino hech qachon kibrga berilmas, “Bilganimdan bilmaganim ko‘p”, der edi. U har bir yangi masalaga sabr bilan yondashar, tushunmagan joyini qayta-qayta o‘rganardi. Aytishlaricha, bir kitobni tushunmaguncha o‘nlab marta mutolaa qilgan paytlari ham bo‘lgan.

Bir kuni Buxoro podshohi og‘ir dardga chalinib qoldi. Ko‘plab tabiblar davo topa olmadi. Shunda yosh Ibn Sinoni chaqirishdi. Atrofdagilar uning yoshligini ko‘rib, shubha bilan qarashdi. Lekin u bemorni diqqat bilan ko‘zdan kechirdi, kasallik sababini aniqladi va muolaja belgiladi. Qisqa vaqt ichida podshoh sog‘aydi.

Podshoh unga katta boylik va mansab taklif qildi. Lekin Ibn Sino boylik o‘rniga saroy kutubxonasidan foydalanish huquqini so‘radi. Chunki uning eng katta orzusi ilmni yanada chuqurroq o‘rganish edi. Shu kutubxonada u tunlar davomida kitob mutolaa qildi, turli fanlar sirlarini o‘rgandi va o‘z asarlarini yoza boshladi.

Uning eng mashhur asarlaridan biri — «Al-Qonun fi-t-tib» («Tib qonunlari») bo‘lib, u nafaqat Sharq, balki G‘arb mamlakatlarida ham asrlar davomida asosiy tibbiy qo‘llanma sifatida xizmat qildi. Bu asar orqali Ibn Sino tabobatni yangi bosqichga ko‘tardi. U inson tanasi, kasallik sabablari va davolash usullarini tizimli ravishda bayon qildi.

Biroq uning hayoti doimo oson kechmagan. Siyosiy beqarorlik, hasadgo‘ylar tuhmat tufayli u ko‘p marotaba shahardan shaharga ko‘chishga majbur bo‘ldi. Ayrim vaqtlarda hatto zindonga ham tushdi. Lekin bu qiyinchiliklar uning irodasini sindira olmadi. Qayerda bo‘lmasin, u ilm bilan shug‘ullanishni davom ettirdi. Zindonda ham kitob yozishdan to‘xtamadi.

Ibn Sino uchun ilm — nafaqat kasb, balki hayot ma’nosi edi. Uning fikricha, inson aql va bilim orqali komillikka erishadi. U tabib sifatida insonlarga shifo berdi, faylasuf sifatida tafakkurni yuksaltirdi, olim sifatida esa ilm xazinasiga beqiyos hissa qo‘shdi.

Ibrat shundaki, buyuklik tasodif emas. U tinimsiz mehnat, sabr va ilmga muhabbat samarasidir. Ibn Sinoning hayoti bizga shuni o‘rgatadiki, haqiqiy boylik mol-dunyo emas, balki bilim va yuksak axloqdir. Qanday sharoit bo‘lmasin, inson o‘z maqsadiga sodiq qolsa, albatta yuksaklikka erishadi.

Ibn Sino merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Uning asarlari hanuz ilm ahli tomonidan o‘rganiladi va qadrlanadi. U qoldirgan ilmiy xazina yosh avlodni izlanishga, tafakkur qilishga undaydi. Ibn Sino nomi jahon ilm-fani tarixida mangu muhrlanib qolgan. Uning hayoti har bir inson uchun matonat va fidoyilik timsolidir. Buyuk ajdodimizning ibratli yo‘li bizni ham ilm cho‘qqilarini zabt etishga chorlaydi. Zero, ilmga intilgan xalqning kelajagi hamisha porloq bo‘ladi.

Sağlık Bilimleri Üniversitesi ile Semerkant Devlet Tıbbiyat Üniversitesi arasındaki işbirliği kapsamında görevlendirildiğim bu üniversitenin modern ve yetkin tıp eğitimine tanık oldum. İki üniversite arasında akademik ve eğitim hareketliliğinin artarak devam etmesi dileğiyle Semerkant Devlet Tıbbiyat Üniversitesinin tanıtılmasında, bana yardımcı olan değerli öğretim üyelerine teşekkür eder saygılarımı sunarım.

Prof.Dr.Mehmet Özder
SBÜ GTF Fizyoloji AD Başkanı
16.02.2026.

UNIVERSITET TARIXI
MUZEYIDAGI TILAKLAR KITOBIDAN

Thank you for everything. We will visit you again.
We are looking forward to cooperate in future.
Thank you very much.
Japan – Uzbekistan Volleyball project team.
Kiyoshi Zaki 加藤靖之
Furukawa Masakazu 古川雅一 今日はありがとうございました!
Masayuki Sugiura 杉浦正幸
2026.02.06

Donolik kaliti

TIBBIYOT INSTITUTIDA O‘QISH – MAS’ULIYATLI YO‘L

Tibbiyotda o‘qish oddiy mutaxassislik emas, balki katta mas’uliyatni talab qiladi. Kelajak shifokorlari uchun asosiy maslahatlar:

- **Nazariyani tushuning, yodlamang** – faqat kasallik simptomni emas, uning qanday paydo bo‘lishini va qanday rivojlanishini o‘rganing.
- **Erta klinik fikrlashni rivojlantiring** – kasallik alomatlarini bog‘lang, tashxis tuzing va laborator tahlillarni to‘g‘ri talqin qilishni mashq qiling.
- **Vaqtni boshqaring** – kunlik reja tuzing va samarali o‘qish usullaridan foydalaning (45–50 daqiqa o‘qish + 10 daqiqa tanaffus).
- **Bemor bilan muloqot** – tinglang, oddiy tilda tushuntiring va har bir bemorni inson sifatida qabul qiling.
- **Ilmiy faol bo‘ling** – ilmiy to‘garaklar va konferensiyalarda qatnashing, maqolalar o‘qing. Ibn Sino yoshlikdan ilmga chuqur kirib borgani uni buyuk tabib qilgan.
- **Ruhiy va jismoniy salomatlikni saqlang** – uyquni tartibiga rioya qiling, sport bilan shug‘ullaning va haddan ziyod o‘zingizni ayblamang. Charchagan shifokor to‘g‘ri qaror qabul qila olmaydi.
- **Kamtarlik va doimiy o‘qish** – Tibbiyotda “men hammasini bilaman” degan gap yo‘q. Ilm doim yangilanadi, har bir amaliyot va kurs - yangi tajriba.
- **Eng muhim maslahat:** siz diplom uchun emas, inson hayoti uchun o‘qiysiz. Har bir o‘rganilgan mavzu kelajakda kimningdir hayotini saqlab qolishi mumkin.

ezguliklar uyg'onadigan muborak Ramazon oyi

bor narsasiga qanoat qilish tuyg‘usi kuchayadi.

Bu oyda Qur’on tilovatiga alohida e’tibor qaratiladi. Qur’on oyatlarini o‘qish va ularning ma’nosi ustida tafakkur qilish insonning ma’naviy dunyoqarashini boyitadi. Duo va ibodatlar qalbga osoyishtalik bag‘ishlaydi. Kechirimli bo‘lish, adovat va g‘azabdan voz kechish, o‘zaro munosabatlarni yaxshilash Ramazonning eng go‘zal samaralaridandir. Shu bois bu oyda ko‘plab oilalarda yarashish, bir-biridan uzr so‘rash holatlari kuzatiladi.

Ramazonning jismoniy foydalari ham e’tiborga molik. To‘g‘ri va me’yoriy ovqatlanish, ma’lum vaqt och yurish organizm uchun dam olish imkonini beradi. Tana ortiqcha yuklamadan xalos bo‘ladi, inson o‘z salomatligiga jiddiyroq e’tibor qarata boshlaydi. Albatta, bu



jarayon to‘g‘ri ovqatlanish va shifokorlar tavsiyasiga amal qilish bilan birga kechsa, yanada samarali bo‘ladi.

Ijtimoiy jihatdan ham Ramazon birlik va hamjihatlik oyidir. Iftor dasturxonlari atrofida yaqinlar, qo‘ni-qo‘shnilar jam bo‘ladi, o‘zaro suhbat va samimiyat kuchayadi. Masjidlarda jamoat bilan o‘qilgan taroveh namozlari odamlarni yanada yaqinlashtiradi. Bu jarayon jamiyatda o‘zaro hurmat va ishonchni mustahkamlaydi.

Eng muhimi, Ramazon insonni o‘z-o‘zini tahlil qilishga undaydi. O‘tgan yilda qilingan xatolar haqida o‘ylash, kelgusi kunlar uchun yaxshiroq rejalar tuzish imkonini beradi. Inson o‘z hayotiga tanqidiy nazar tashlab, ma’naviy kamolot sari qadam qo‘yadi. Shu ma’noda Ramazon faqat bir oylik ibodat emas, balki butun yil davomida ezgu amallar qilishga da’vatdir.

Xulosa qilib aytganda, Ramazon oyi insonni ruhan poklaydi, jismonan tartibga soladi va ijtimoiy jihatdan faollashtiradi. Bu oy har bir qalbga nur, har bir xonadonga baraka olib kiradigan, insonni yaxshilik va komillik sari yetaklaydigan ulug‘ ne’matdir.

JAHON SOG’LIQNI SAQLASH TASHKILOTI:

DUNYODA 95 MILLION NAFARGA YAQIN BEMOR KATARAKTADAN AZIYAT CHEKMOQDA



Jahon sog’liqni saqlash tashkiloti katarakta kasalligi bo’yicha yangi hisobotini e’lon qildi.

Ma’lumki, bu xastalik ko’z gavharining xira tortishi bilan namoyon bo’lib, bora-bora bemorda ko’rish qobiliyati butunlay yo’qolishiga olib keladi. Hozir dunyo bo’yicha 94 million nafardan ortiq kishi shu darddan aziyat chekmoqda.

Bu patologiyaning rivojlanishiga yosh o’tishi, ultrabinafsha nurlanish, tamaki chekish, qandli diabet, kortikosteroid dori vositalarini ko’p qabul qilish kabi omillar sabab bo’ladi.

Vaholanki, zamonaviy tibbiyotda bu kasallikning davosi allaqachon topilgan. Xususan, kam invaziv jarrohlik amaliyoti orqali kataraktadan tez va oson xalos bo’lish mumkin. Bunday operasiyalar odatda 15 daqiqa davom etadi va eng samarali muolaja usuli hisoblanadi.

Shunga qaramay, jahonda katarakta tufayli ko’rish qobiliyatini butunlay yo’qotish xavfi bilan yashayotgan bemorlarning qariyb yarmi hanuzgacha zarur jarrohlik yordamidan foydalana ololmayapti.

To’g’ri, keyingi 20 yil davomida kataraktani davolashga qaratilgan operasiyalar qamrovi 15 foizga oshgan. Ammo bu ko’rsatkich etarli emas. Chunki, JSST tomonidan 2030 yilga qadar bunday amaliyotlar ko’lamini kamida 30 foizga oshirish maqsad qilingan.

Mutaxassislar fikricha, yuqori texnologik jarrohlik xizmatlarini birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarigacha tushirish, joylarda oftalmolog shifokorlar sonini oshirish va davolanish narxlarini maqbullashtirish zarur.

JSST hisobotida ta’kidlanganidek, o’z vaqtida amalga oshiriladigan operasiyalar orqali millionlab insonlarning ko’rish qobiliyatini tiklash, nogironlikning oldini olish va ularning hayot sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Eslatib o’tamiz, hozir yurtimizda ko’z gavharini almashtirish bilan bog’liq bunday operasiyalar choksiz va kesmalarsiz, mikroinvaziv usulda amalga oshirilib, yuzlab bemorlarning qorachiqlariga nur qaytmoqda.

Sog’liqni saqlash vazirligi Matbuot xizmati

JAHON SOG’LIQNI SAQLASH TASHKILOTI POLIOMIELITNING 2-TURIGA QARSHI YANGI VAKTSINA – NOPV2 NI TASDIQLADI

Qayd etilishicha, ushbu vosita amaliyotga kiritilgach, mazkur kasallikning avj olishini cheklash mumkin bo‘ladi. JSST ma’lumotlariga ko‘ra, og‘izga tomchi orqali qabul qilinadigan nOPV2 preparati amalda qo‘llanilayotgan muqobillariga nisbatan yuqori genetik barqarorlik va samaradorlikka ega. U yangi epidemiyalar paydo bo‘lishi xavfini kamaytiradi hamda virusning mutatsiyaga uchrash ehtimolini pasaytiradi.

Shu ma’noda, yangi vaktsinadan foydalanish ko‘plab mamlakatlarni poliomielitdan xoli hududlarga aylantirish imkonini beradi. Mutaxassislarning ta’kidlashicha, emlash qamrovini kengaytirish va aholi o‘rtasida targ‘ibot ishlarini kuchaytirish kasallikni to‘liq bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi preparat ayniqsa poliovirusning 2-turi qayd etilayotgan hududlarda samarali choraga aylanishi kutilmoqda.

Eslatib o‘tamiz, poliomielit o‘tkir shol kasalligi bo‘lib, asab tizimi, ayniqsa, orqa miyani shikastlaydi. Asosan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarda ushbu virusni yuqtirish xavfi yuqori hisoblanadi. Ba’zan u falajlik va hatto o‘lim holatlariga olib kelishi mumkin. Shu bois mutaxassislar bolalarni o‘z vaqtida emlash va profilaktika choralariga qat’iy rioya qilishni tavsiya etmoqda.

Sog’liqni saqlash vazirligi Matbuot xizmati.

SAMDTU QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E’LON QILADI

DAVOLASH FAKULTETI

Urologiya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin;

Gematologiya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin;

3-son akusherlik va ginekologiya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin;

1-son xirurgik kasalliklar va transplantologiya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin;

Urologiya kafedrasi, stajyor assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin.

PEDIATRIYA FAKULTETI

Nurli diagnostika va terapiya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin;

Neyroxirurgiya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FAKULTETI

Endokrinologiya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin;

2-son ichki kasalliklar va kardiologiya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin.

XALQARO TA’LIM FAKULTETI

Umumiy xirurgiya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin;

Tibbiy reabilitatsiya, sport tibbiyoti va xalq tabobati kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin.

BOSHQARUV VA MENEJMENT FAKULTETI

Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlash menejmenti kafedrasi, katta o‘qituvchi lavozimiga - 1 ta o‘rin;

Epidemiologiya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin;

Odam anatomiyasi kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin.

DIPLOMDAN KEYINGI TA’LIM FAKULTETI

Travmatologiya - ortopediya, neyroxirurgiya va oftalmologiya kafedrasi, assistent lavozimiga - 1 ta o‘rin.

Kafedra mudiri lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo‘lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo‘lgan shaxslar qatnashishi mumkin. Katta o‘qituvchi, assistent yoki stajyor assistent lavozimini egallash uchun tegishli mutaxassislik bo‘yicha oliy ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslar (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin. Hujjatlar e’lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri, Amir Temur ko‘chasi, 18.



UNIVERSITETIMIZ TALABALARI XALQARO OLIMPIADADA YUQORI NATIJALARNI QAYD ETDI

16-22-fevral kunlari Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida “Morfologiya va jarrohlik” mavzusida talabalar va yosh olimlarning II xalqaro forumi yuqori saviyada bo‘lib o‘tdi.

Mazkur nufuzli anjuman tibbiyot sohasida tahsil olayotgan yoshlarning nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda tajriba almashishni kengaytirishga xizmat qildi. Forumda yurtimizning 10 dan ortiq oliy ta’lim muassasalari hamda Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston davlatlaridan yetakchi universitet jamoalari ishtirok etdi.

Jumladan xalqaro forum doirasidagi olimpiadada Samarqand davlat tibbiyot universitetining “Eskulap” va “Skalpel” jarrohlik klublaridan 28 nafar talabalar abdominal xirurgiya, plastik jarrohlik, neyroxirurgiya, kardioxirurgiya, transplantologiya, anesteziologiya va reanimatsiya, akusherlik va ginekologiya, urologiya, otorinolaringologiya, travmatologiya kabi jarrohlik yo‘nalishlari bo‘yicha o‘zlarining nazariy va amaliy bilimlarini namoyish etishdi.

Olimpiada yakuniy natijalari bo‘yicha universitetimiz talabalari 4 ta oltin, 7 ta kumush va 3 ta bronza medallariga sazovor bo‘lishdi.

Tahririyat raisi:
J.A. RIZAYEV

Bosh muharrir:
E.S. TANGIROV

Tahrir hay’ati:
G‘.U.Lutfullayev, S.A.Karabayev, A.A.Axmedov, J.F.Kadirov, B.E.To‘xtarov, F.A.Daminov, S.E.Mamaradjabov, U.S.Pulatov N.M. Shavazi.

SHIFOKOR SO`ZI
Nashr uchun mas’ul:
O. Muratov

Operator va sahifalovchi:
A. Xolboyev
Fotomuxbir:
O.Axmedov

Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro`yxatga olingan.
INDEKS: 5539

Gazeta har oyda bir marta to`liq rangli shaklda chop etiladi va bepul tarqatiladi

MANZIL: Samarqand shahri, Amir Temur ko`chasi 18-uy.
Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75
e-mail: shifokor@samti.uz, sammi@sammi.uz

Gazeta «Erudit» MChJ bosmaxonasida ofset usulida chop etildi. 2 bosma taboq.
Nashrga ruxsat berildi: 2026-yil, 25-fevral. Adadi 500 nusxa. Buyurtma: 140